

**SHEROBOD TUMANI TOPONIMLARINING
LEKSIK-SEMANTIK VA ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI****Xudoyqulov Azizbek**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20234343>

Annotatsiya. Ushbu maqola Surxondaryo viloyati Sherobod tumanining geografik obyektlar nomlari - toponimlarining leksik-semantik va etimologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijasida Sherobod toponimiyasining ko'p qatlamli tuzilishi aniqlanib, uning tarkibida qadimgi sug'diy-eroniy, turkiy, arabcha-diniy va zamonaviy o'zlashma qatlamlar mavjudligi isbotlangan.

Toponimlarning leksik-semantik tahlili orqali ularning tabiiy-geografik, antropogen, zoonimik, fitonimik, diniy-ma'rifiy va ijtimoiy-iqtisodiy guruhlariga tasnifi amalga oshirildi.

Toponimlar yasalishining sintetik (morfologik) va analitik (sintaktik) usullari, shuningdek, ularning tarixiy-lisoniy kelib chiqishi qatlamli tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy toponimik tadqiqotlarga va o'zbek tilining tarixiy leksikologiyasi masalalariga yangi ilmiy yondashuvni taklif etadi.

Kalit so'zlar: toponimika, onomastika, Sherobod tumani, etimologiya, leksik-semantik tahlil, toponimik qatlam, gidronim, oronim, oykonim, etnotoponim, mifonim.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению лексико-семантических и этимологических особенностей топонимов (географических названий) Шерабадского района Сурхандарьинской области. В результате исследования установлено многослойное строение топонимики Шерабада, доказано наличие в ее составе древних согдийско-иранских, тюркских, арабско-религиозных и современных заимствованных слоев. Проведен лексико-семантический анализ топонимов с классификацией на природно-географические, антропогенные, зоонимические, фитонимические, религиозно-просветительские и социально-экономические группы.

Исследованы синтетические (морфологические) и аналитические (синтаксические) способы образования топонимов, а также их историко-лингвистическое происхождение.

Результаты исследования предлагают новый научный подход к региональным топонимическим исследованиям и проблемам исторической лексикологии узбекского языка.

Ключевые слова: топонимика, ономастика, Шерабадский район, этимология, лексико-семантический анализ, топонимический слой, гидроним, ороним, ойконим, этнотопоним, мифоним.

Abstract. This article is devoted to the study of the lexico-semantic and etymological features of toponyms (geographic names) of the Sherobod district of Surkhandarya region. As a result of the research, the multilayered structure of Sherobod toponymy was established, and the presence of ancient Sogdian-Iranian, Turkic, Arabic-religious and modern borrowed layers in its composition was proven. A lexico-semantic analysis of toponyms was carried out with classification into natural-geographic, anthropogenic, zoonymic, phytonymic, religious-educational and socio-economic groups. The synthetic (morphological) and analytical (syntactic) methods of toponym formation, as well as their historical-linguistic origin, were studied. The research results offer a new scientific approach to regional toponymic studies and historical lexicology issues of the Uzbek language.

Keywords: toponymy, onomastics, Sherobod district, etymology, lexico-semantic analysis, toponymic layer, hydronym, oronym, oykonym, ethnotoponym, mythonym.

KIRISH

Toponimika - onomastikaning muhim tarmog'i bo'lib, u yer yuzasidagi turli geografik obyektlar (shahar, qishloq, tog', daryo, ko'l, adir va h.k.) nomlarini tadqiq etadi. Joy nomlari insoniyat tarixi bilan tengdosh bo'lib, ular muayyan hududda yashagan xalqlarning tili, madaniyati va dunyoqarashi haqida xabar beruvchi "lisoniy arxiv" vazifasini o'taydi [1].

Zamonaviy dunyo tilshunosligida toponimlar tadqiqi bir qator dolzarb muammolar bilan bog'liq. Xususan, toponimlarning semantik motivatsiyasini aniqlashdagi murakkabliklar, tarixiy qatlamlarning ko'p bosqichliligi, substrat va superstrat unsurlarni ajratishdagi qiyinchiliklar hanuzgacha dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ko'plab hududlarda toponimlarning asl etimologiyasi yo'qolgan yoki noto'g'ri talqin qilingan holatlar uchraydi [2].

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, milliy qadriyatlarimizni tiklash, tilimizning boy imkoniyatlarini o'rganish va o'tmish merosimizni asrab-avaylash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, geografik joy nomlari - toponimlarni o'rganish tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, toponimlar shunchaki joy nomlari emas, balki xalqning ko'p asrlik tarixini, madaniyatini, dunyoqarashini va hududning tabiiy-geografik qiyofasini o'zida muhrlab qolgan lisoniy xazinadir [3].

Surxondaryo vohasi, xususan Sherobod tumani toponimiyasi o'zining qadimiy qatlamlari, turkiy va forsiy tillarning o'zaro sintezi hamda o'zbek urug'-aymoqchilik an'analari bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Bugungi kunda globalizatsiya jarayonida ayrim qadimiy joy nomlarining unutilishi yoki asossiz ravishda o'zgartirilishi ushbu hudud toponimlarini lingvistik jihatdan chuqur tadqiq etish, ularning etimologiyasini aniqlash va ilmiy pasportlashtirishni taqozo etmoqda [4].

2. SHEROBOD TUMANI TOPONIMLARINING LEKSIK-SEMANTIK GURUHLARI

2.1. Flora va fauna dunyosini aks ettiruvchi toponimlar

Xalqimiz azaldan tabiat bilan uzviy bog'liqlikda yashagani sababli, joy nomlarida o'simlik (fitonim) va hayvonot (zoonim) dunyosi keng aks etgan. Fitotoponimlar orasida mevali va yovvoyi daraxtlar nomlari bilan bog'liq toponimlar juda ko'p: Achchiqolma, Qirqolma, Olchabuloq, Chormag'iz, Jiydabuloq, Paribodom, Sebitax, Bedak, Uzumzor, Chinor, Pudina buloq, Yalpizli, Pista soy va boshqalar [7].

Zootoponimlar (hayvonot dunyosi bilan bog'liq nomlar): Boritepa, Borsiq, Laylagon, Lochinbuloq. Bu nomlar hududda muayyan hayvon yoki qushlarning ko'p bo'lganligi yoki ularning makoni bo'lganligiga ishora qiladi. Masalan, Lochinbuloq nomi shu yerdan sizib chiquvchi buloq boshida bitta yakka qoyada lochin yuvori borligi, suv esa osha qoya tagidan chiqqanligi sababdan ushbu nomni olgan [8].

2.2. Relyef va fizik-geografik xususiyatga asoslangan toponimlar

Bu guruhdagi nomlar joyning shakli, rangi, suvi ning ta'mi yoki boshqa fizik belgilarini ifodalaydi. Sariqbel, Oqtosh, Qizilolma kabi rang-tus belgilari orqali joyning xarakteristikasi berilgan. Shorob, Sassiqbuloq - suvning kimyoviy tarkibi (shorligi yoki hidi) nominatsiyaga asos bo'lgan. Chuqursoy, Yoriqsoy, Katta Nov - relyefning morfologik xususiyatlarini aniq ko'rsatadi.

Bu toponimlar Sherobod tumanining "tarixiy-geografik xaritasi" hisoblanadi [9].

2.3. Diniy-ma'rifiy va mifologik asosdagi toponimlar

Sherobod tumani azaldan islom madaniyati, tasavvuf va qadimiy e'tiqodlar markazlaridan biri bo'lib kelgan.

Hudud toponimiyasida uchraydigan diniy va mifologik unsurlar xalqning dunyoqarashi, avliyo-allomalarga bo'lgan ehtiromi hamda o'tmishdagi mifologik tasavvurlarining lingvistik izidir.

Xoja Anqo, Xoja Ulkan, Xoja bulg'on, Xoja qiya - bu nomlar tarkibidagi "Xoja" komponenti hududda diniy tabaqa vakillari yashaganini yoki ularning qadamjolari mavjudligini anglatadi. Kallamozor - "Mazar" (ziyosatgoh) va "kalla" (bosh) so'zlari birikmasidan hosil bo'lib, tarixiy voqealar yoki afsonalar bilan bog'liq muqaddas maskan mazmunini beradi.

Ajina kamar - xalqning mifologik tasavvurlari asosida shakllangan bo'lib, g'or (kamar)ning sirli yoki vahimali ekanligiga ishora qiladi [10].

2.4. Sanoat, hunarmandchilik va xo'jalik faoliyati bilan bog'liq toponimlar

Bu guruh Sherobod aholisining tarixan qanday yumushlar bilan shug'ullaganini ko'rsatadi. Tegirmontosh - muayyan mehnat quroli yoki ijtimoiy vazifa bajarilgan joylar nomi.

Egarchi - hunarmandchilik turi (egar yasash) bilan shug'ullanuvchi aholi punktini anglatadi. Koriz, Korizbuloq - qadimgi gidrotexnik inshootlar - yer osti suv yo'llari mavjudligidan dalolat beradi. Nog'oraxona - qadimda xabar yetkazish va muhim voqealardan aholini ogohlantirish uchun foydalanilgan joy [11].

3. TOPONIMLAR YASALISHINING SINTETIK VA ANALITIK USULLARI

3.1. Sintetik (morfologik) usul

Sintetik usul - bu joy nomining asosga maxsus toponim yasovchi qo'shimchalar (topofikslar) qo'shilishi orqali shakllanishidir. Bu usulda yangi leksik birlik bitta so'z shaklida namoyon bo'ladi. Sintetik usulda qo'shimchalar quyidagi funksiyalarni bajaradi: obyektning xususiyatini ko'rsatish, to'plamlilik va makon ma'nosini berish, egalik va aloqadorlikni bildirish [12].

Sherobod toponimiyasida sintetik usul misollari: -ak / -cha affiksi (kichraytirish va lokallik) - Bedak, Xatak, Qorchiq, Chaxak; -on / -gon / -an (qadimgi makon va ko'plik affiksi) - Laylagon, Shalqon; -liq / -ik (belgi va egalik) - Loyliq, Shamollik; -chi (kasb-hunar) - Egarchi.

3.2. Analitik (sintaktik) usul

Analitik usul - bu ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlarning o'zaro grammatik va semantik birikishi natijasida bitta joy nomining hosil bo'lishidir. Bu usul "kompozitsiya" deb ham yuritiladi. Sherobod toponimiyasining 70% dan ortig'ini tashkil etuvchi ushbu usulda ikki va undan ortiq so'z birikadi [13].

Atributiv model (sifatlovchi + sifatlanmish): Oqtosh, Qizilolma, Qoraxayat, Sariqbel - rang orqali obyektning farqlash; Chuqursoy, Yoriqsoy - geofizik holatni ifodalash; Katta Nov, Kichkina Qorchiq - hajm va miqyos orqali farqlash.

Genitiv model (qaralmishli birikma): Kampirtepa, Boynoq soy, Pista soy, Jiydabuloq - predmet va geografik termin birikmasi; Xoja Anqo, Shomuroddara - shaxs ismi va obyekt birikmasi.

Numeral model (son + ot): Yettiqo'l, Panjob, Ikkizak, Qirqkish - sonlar orqali hududni miqdoriy tavsiflash; Saksonkodi, To'qsonkodi - ma'muriy-iqtisodiy o'lchov birliklari birikmasi.

4. TOPONIMLARDA ETIMOLOGIK QATLAMLAR

4.1. Qadimgi sug'diy va eroniy qatlam (Substrat qatlam)

Sherobod hududining eng qadimgi nomlari sug'diy va qadimgi eroniy tillarga borib taqaladi. Bu nomlar asosan suv obyektlari va qadimiy istehkomlar bilan bog'liq. Vandob (Sug'diycha vand - "to'g'on", "to'siq" + forsha ob - "suv") - qadimda ushbu hududda daryo suvini to'sib, dehqonchilik qilish uchun maxsus inshoot bo'lganligini anglatadi.

Poshxurt - etimologik jihatdan juda murakkab nom, ayrim tadqiqotchilar buni qadimgi eroniycha "posh" (baland, yuqori) va "xurt" (suv ichadigan joy, buloq) komponentlaridan tashkil topgan deb hisoblashadi [14].

4.2. Turkiy qatlam (Superstrat qatlam)

Sherobod toponimiyasining eng katta va faol qatlami turkiy tillarga mansubdir. Bunga o'zbek urug'larining (qong'iroq, laqay, do'rmon va b.) til xususiyatlari kuchli ta'sir ko'rsatgan.

G'urjak - eski turkiy tildagi "g'ur" (tog', balandlik) yoki "g'urchak" (qo'rg'oncha) so'zlaridan olingan. Qorchiq - turkiy "qorchi" (posbon, qurolbardor) so'zidan olingan bo'lib, ma'muriy-harbiy ahamiyatga ega maskan bo'lganini bildiradi [15].

4.3. Arabcha va diniy-ma'rifiy qatlam

Islom dini kirib kelishi bilan Sherobod toponimiyasida arabcha o'zlashmalar va diniy terminlar mustahkam o'rin egalladi. Xoja Anqo, Xoja Ulkan - "Xoja" (forscha/arabcha unvon) komponenti diniy tabaqaga mansublikni bildiradi. Maydon, Kallamozor - "Maydon" (arabcha maydan - ochiq joy) va "Mazor" (arabcha mazar - ziyoratgoh) so'zlari ijtimoiy-madaniy hayotning arab tili ta'sirida shakllanganini ko'rsatadi [16].

XULOSA

O'zbek tili toponimiyasini o'rganish tilshunoslikning nafaqat nazariy, balki tarixiy va lisoniy-madaniy jihatdan eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Sherobod tumani joy nomlari misolida olib borilgan ushbu tadqiqot natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

Toponimika - milliy ma'naviyat va tarix ko'zgusi. Tadqiqot davomida aniqlandiki, joy nomlari shunchaki geografik obyektни belgilovchi vosita emas, balki xalqning o'tmishi, tili va dunyoqarashini o'zida saqlagan "jonli arxiv"dir. Sherobod toponimiyasi Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi, xususan, qadimgi Baqtriya va Sug'diyona madaniyatining uzviy davomi ekanligi lisoniy dalillar bilan isbotlandi.

Lisoniy qatlamlarning stratigrafik tahlili. Hudud toponimiyasi o'ta murakkab va ko'p qatlamli tuzilishga ega. Eng qadimgi sug'diy-eroniy qatlam (Vandob, Poshxurt, Homkon) hududning ilk dehqonchilik va metallurgiya markazlaridan biri bo'lganini ko'rsatadi. Turkiy qatlam (Oqtosh, Sariqbel, Qorchiq) esa xalqimizning etnik shakllanish jarayoni va chorvachilik madaniyatini aks ettiruvchi eng yirik va faol qatlam ekanligi aniqlandi.

Onomastik birliklarning shakllanish qonuniyatlari. Sherobod toponimlarida Sifatlovchi + Ot modeli (65-70%) yetakchilik qilishi, xalqning obyektlarni rang va belgi-xususiyat orqali nomlashga moyilligini ko'rsatadi. Zoonimik va fitonimik nomlarning ko'pligi aholining tabiat bilan uzviy bog'liqligini, metaforik nomlar esa xalqning yuksak badiiy tafakkurini namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Begmatov E. O'zbek tili toponimikasining lisoniy tadqiqi. - Toshkent: Fan, 1985.
2. Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. - Toshkent: Fan, 1965.
3. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. - Toshkent: Yosh gvardiya, 1988.
4. Nafasov T. Surxondaryo toponimlari. - Toshkent: Fan, 2009.
5. Qoraev S. Geografik nomlar ma'nosi. - Toshkent: O'zbekiston, 1978.
6. Qoraev S. Toponimika. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006.
7. Oxunov N. Joy nomlari ta'birida. - Toshkent: O'zbekiston, 1994.
8. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.

9. Murzaev E.M. Slovar' narodnyx geograficheskix terminov. - M.: Mysl', 1984.
10. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. - Toshkent: Sharq, 2001.
11. Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro (Toponimik etyudlar). - Toshkent: Fan, 1991.
12. Nikonov V.A. Vvedenie v toponimiku. - M.: Nauka, 1965.
13. Tursunov S. Sherobod tarixi va etnografiyasi. - Toshkent: Yangi nashr, 2014.
14. Matqosimova M. Classification of toponyms and their role in linguistics. The Lingua Spectrum, 2025, 5(1), 155-162.
15. Akbarova D.A. Semantic And Structural Characteristics Of Toponyms. Eurasian Journal Of Academic Research, 2025, 5(12).
16. Turdiqulov Sh.D. Lingvomadaniy kodlarning onomastik birliklarda ifodalanishi. PhD diss. avtoref. - Termiz, 2023.
17. O'zbekiston Respublikasining "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2011-yil 12-oktabr.